

# MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI

## 2024-YIL HISOBI MOLIYAVIY HISOBOTI

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 2024-yil moliyaviy faoliyati davomida mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish hamda infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Hisobot davrida universitetning asosiy moliyaviy manbalari sifatida budjet mablag'lari, to'lov-kontrakt tushumlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati daromadlari hamda boshqa tushumlar xizmat qildi.

Budjet mablag'lari bo'yicha jami tushum 53 477 868 000 so'mni tashkil etib, jami chiqim 47 563 520 562 so'mni tashkil qildi. Ushbu mablag'lar asosan o'quv jarayonini ta'minlash, xodimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash va zarur xarajatlarni qoplashga yo'naltirildi. To'lov-kontrakt asosidagi tushumlar esa 86 558 589 000 so'mni tashkil etib, chiqimlar 74 496 442 000 so'm miqdorida amalga oshirildi. Mazkur mablag'lar ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirish uchun sarflandi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati doirasida 3 878 319 000 so'm tushum shakllanib, 3 432 423 019 so'm mablag' ilmiy loyihalar, innovatsion ishlanmalar va ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirildi. Ish haqi, stipendiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlar yo'nalishida 1 546 461 500 so'm tushum qayd etilgan bo'lsa-da, chiqimlar 14 565 202 307 so'mni tashkil etdi. Bu esa universitetda ijtimoiy majburiyatlarga, xususan professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash, talabalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa to'lovlarga ustuvor ahamiyat berilganini ko'rsatadi.

Infratuzilmani rivojlantirish uchun 3 045 000 000 so'm mablag' ajratilgan bo'lib, chiqimlar 2 346 988 so'mni tashkil etdi. Ushbu mablag'lar bino va inshootlarni ta'mirlash, zamonaviy sharoitlar yaratish hamda universitet hududini obodonlashtirishga yo'naltirilgan. Shuningdek, hisobot davrida ekologik va xo'jalik

yoʻnalishlariga ham alohida eʻtibor qaratildi. Jumladan, koʻchatlar ekish va hududni koʻkalamzorlashtirish uchun 20 000 000 soʻm, elektr energiyasi xarajatlari uchun 1 145 000 000 soʻm hamda chiqindilarni boshqarish uchun 54 000 000 soʻm mablagʻ ajratildi.

Umuman olganda, 2024-yilda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanildi. Mablagʻlar taʼlim sifatini oshirish, ilmiy faoliyatni rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va infratuzilmani yaxshilashga xizmat qildi. Kelgusida mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish, qoʻshimcha moliyaviy manbalarni jalb etish va barqaror rivojlanish tamoyillarini keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri boʻlib qoladi.

**Moliya va iqtisod ishlari**

**boʻyicha prorektor:**



**R.Egamov**